

## BO'LAJAK PSIXOLOG KASBIY KOMPETENTLIGI SHAKLLANISHINING ASOSIY MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8310690>

**Qodirova Dilnoza Murtazoyevna**

BuxDu psixologiya kafedrasi òqituvchisi

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlik, bo'lajak psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari, muloqot qilishda kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi, psixologning kasbiy kommunikativ kompetentliligi, kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish to'g'risida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*kommunikativ kompetentlik, bo'lajak o'qituvch, muloqot, oliy ta'lim, psixolog.*

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE PSYCHOLOGISTS

### **Abstract**

*This article talks about communicative competence, issues of developing professional competence of future psychologists, unity of communicative, interactive and perceptive components in communication, professional communicative competence of a psychologist, communicative self-improvement.*

### **Keywords**

*communicative competence, future teacher, communication, higher education, a psychologist.*

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

### **Аннотация.**

*В данной статье говорится о коммуникативной компетентности, вопросах развития профессиональной компетентности будущих психологов, единстве коммуникативного, интерактивного и перцептивного компонентов в общении, профессиональной коммуникативной компетентности психолога, коммуникативном самосовершенствовании.*

### **Ключевые слова**

*коммуникативная компетентность, будущий учитель, общение, высшее образование, психолог*

KRISH

Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta." Texnologiya" so'zi - ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya esa - natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish demakdir.

Pedagogik texnologiyaning muammoli o'qitish texnologiyalari, o'yintexnologiyalari, tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi, o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni individuallashtirish hamda dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyalari kabi yo'nalishlari mavjud.

Hozirgi oliy o'quv yurtlaridagi samarador o'qitish texnologiyasi – bumuammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs taibiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlami o'zlashtirish bo'yicha ulaming bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlami o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

"Kommunikativ kompetentlik" tushunchasi bilan yaqin aloqador bo'lgan – "shaxsning kommunikativ yadrosi" tushunchasi mavjud. «Kommunikativ yadro» tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan va ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy psixolog A.A.Bodalev tomonidan birinchi marta qo'llanildi. Shaxsning kommunikativ yadrosi psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqilishi har bir insonda muloqotni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi asos mavjud. Bunday asos har qanday katta yoshli insonlarda, bolalar shaxsida ham mavjud bo'lib, kommunikativ yadrosiga shaxsiy xususiyat va sifatlar kirishi mumkin. Aynan ular oxir-oqibat, muloqot metodi va yo'nalishi boshqa tomonidan, psixologning kasbiy kommunikativ kompetentligining past darajasi unga professional sifatida o'zini o'zi amalga oshirishiga imkon bermaydi, oqibatda umuman, hayotdan qoniqmaslikni tug'dirishi mumkin. Mazkur umumiy va kasbiy kommunikativ kompetentlikning o'zaro ta'sirini inobatga olib, biz uning namoyon bo'lishining quyidagi mezonlarini aniqladik: birinchi mezon – umumiy kommunikativ qadriyatlar.

Ularga psixolog uchun insonning qadri, muloqot jarayonining qadri, psixolog uchun an'anaviy muloqot shakllarining qadrini kiritdik; ikkinchi mezon – psixologning shaxslararo muloqotni amalga oshirishi umumiy kommunikativ

ko'nikmalari sifatida belgilandi. Bu uning yaqin qarindosh insonlar, ishdagi hamkasblar, o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa o'rnatish ko'nikmasi; uchinchi mezon - psixologning umumiyligi kommunikativ qadriyatlarni o'zining kasbiy idealiga kiritish darajasi, chunki mazkur qadriyatlarning rivojlanish darajasi kundalik hamda psixologik muloqotda ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ular psixologning bolalar bilan insonparvarlik, fasilitatorlik muloqotining o'ziga xos asosi bo'lib xizmat qiladi, uning asosida o'z mehnatining yetakchi qadriyati sifatida o'quvchiga yo'nalganlik va o'zini o'zi anglash hamda o'zini o'zi, o'quvchi shaxsining o'zgarishlari mos ravishda o'z faoliyati usullarini o'zgartirish ehtiyoji yotadi; psixologda kasbiy kommunikativ malakalar mavjudligi kommunikativ kompetentligi darajasini baholashning to'rtinchchi mezoniga aylandi, chunki kasbiy psixologik muloqot uni kundalik muloqotdan farqlovchi qator xususiyatlarga ega.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta." Texnologiya" so'zi - ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya esa - natijani qo'lga kiritish uchun ta'limga doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish demakdir.

Pedagogik texnologiyaning muammoli o'qitish texnologiyalari, o'yintexnologiyalari, tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi, o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni individuallashtirish hamda dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyalari kabi yo'nalishlari mavjud.

Hozirgi oliy o'quv yurtlaridagi samarador o'qitish texnologiyasi – bumuammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs taibiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlami o'zlashtirish bo'yicha ulaming bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlami o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Mana shunday muammoli ta'limga texnologiyalaridan biri muammoli leksiadir. Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlanadir. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'iganilayotgan ilmiy muammolami nazariy jihatdan fikrlashga

diqqatni jalg qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalaniladi, ulami yangi axborotlar bilan bog'Miq ravishda yangilanishini amalga oshiradi. Muanunoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakliki, unda o'qituvchi boshchiligidagi muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi talabalarining samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi. Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarining faollashtiruvchi va jadallashtinivchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalami bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftnkorlik ;
- kommunikativlik ;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik ;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteiga ijod maydoniga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalami tahlii qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'liminio'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalanili. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O'yinlar turli maqsadlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani taibiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi

hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo'lishi mumkin. Insonparvar yo'nalgan psixolog uchun kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish nafaqat o'zi uchun o'zini o'zi yaxshilashda, balki samarali o'zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo'lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o'ziga xosliklarini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun kommunikativ o'zini o'zi rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga egadir. Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari amaliy yondashuv orqali kasbiy-psixologik faoliyatni tashkil qilishning metodik ta'minotini ishlab chiqishni taqozo qildi. O'quv mashg'ulotini axborot, o'zini o'zi anglash va amaliy kabi uchta blokda qurish maqsadga muvofiq. Oliy psixologika ta'limining o'ziga xosligini bunday tushunish madaniyat va ta'lim tizimi shaxslaridan, psixologdan o'z kasbiy-mutaxassisligi kompetentligini doimiy namoyon etish talab etilishi an'anaviy ta'lim tizimi mazmun-mohiyatidan izlash manbai bo'lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Psixolog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2006 yil, 6,7 son, 39-modda, 2011 yil 25 son, 260-modda, 2012 yil 33-34 son, 390-modda).
2. "Oliy ta'lim muassasalari psixolog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Vazirlar Mahkamasining qarori.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent.1999.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevorini yaratishdan iboratdir. IX sessiyadagi nutqdan.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Rustamov A. "So'z haqida so'z". -T: 1992.
7. Slastenin V.A. Овощауа psixologika. -M.- 2002.
8. Bolotov V.A., Serikov V.V. Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazavatelnoy programmoy. Psixologika. 2003. № 3.
9. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Psixologika. 2004. № 10.
10. Blinov V.I.Prakticheskaya podgotovka budushchih uchiteley: pragmatika, prespektivyi. Moskva. IOO. MONRF. 200